

XORAZM VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi
- IV. Metama'lumotlar


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 698 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 73 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 625 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 656,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 39,8 % ga oshdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 163,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 493,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 093,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 158,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 543 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 512 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 053,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 49,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 910,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 146,4 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 95,3 % ni tashkil qildi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Shovot (42,3 m.), Xiva (4,5 m.), Bog'ot (4,1 m.) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o‘shish sur‘atlari (foizda)




UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 578 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 574 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 974,6 mlrd so‘mga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2025- yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmining o‘shish sur‘atlari (foizda)



III. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.